Yo‘lchiyev Qahhor Vahobovich (filologiya fanlari doktori, dotsent, Farg‘ona davlat universiteti; e-mail: munisnasim.@mail.ru; Orcid: 0000-0001-7051-2704)

ZEBO MIRZO SHE’RLARIDA LIRIK SUBYEKT

Annotatsiya. *Maqolada iste’dodli shoira Zebo Mirzo she’rlarida lirik subyektning poetik matndagi ifodasi postmodernistik aspektdan tahlilga tortilgan. Kirish qismida lirik subyekt mohiyati, uning she’rdagi o‘rni va tadqiqotning o‘rganilish zarurati asoslangan. Adabiyotlar tahlili va metodologiya bandida esa subyektning nazariy asoslariga oid fikrlar keltirilgan. Muhokama qismida esa Zebo Mirzo she’rlari tahlilga tortilgan. Shoira yaratgan lirik subyekti mumtoz she’riyatimizdagi Mashrab, Nodira kabi yetuk shoirlarimiz ifodalagan lirik subyektga fikrlash tarzi va mavzu ifodasiga ko‘ra yaqin kelishi ta’kidlangan. Lekin istak va uning postmodernistik tafakkuri bilan farqlanishi isbotlangan. Xulosalar keltirilgan. Foydalanilgan adabiyotlar tegishli tartibda sanab ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *obraz, tovush, kechinma, postmodernism, istak, arxitip, mavzu, anafora, sineldoxa, lirik subyekt, botiniy olam, badiiy-estetik idrok.*

Юлчиев Каххор Вахобович (доктор филологических наук, доцент, Ферганский государственный университет)

ЛИРИЧЕСКИЙ СУБЪЕКТ В СТИХАХ ЗЕБО МИРЗО

Аннотация. *В статье анализируется выражение лирического субъекта в стихах талантливой поэтессы Зебо Мирзо с постмодернистской точки зрения. Введение основано на сущности лирического субъекта, ее месте в стихотворении и необходимости исследования. В разделе «Анализ литературы и методологии» представлены теоретические основы предмета. В дискуссионном разделе анализируются стихи Зебо Мирзо. Отмечается, что лирический субъект, созданный поэтессой, по способу мышления и выражения близок к лирическому герою, выраженным нашими классическими поэтами, такими как, Машраб и Надира. Но в ходе исследования выявлено отличие желание лирического субъекта от постмодернистского мышления. Представлены выводы. Использованная литература расположена в соответствующем порядке.*

Ключевые слова: *образ, звук, переживания, постмодернизм, желание, архетип, тема, анафора, синекдоха, лирический субъект, внутренний мир, художественно-эстетическое восприятие.*

Yulchiev Kahhor Vahobovich (Doctor of Philology, docent, Ferghana State University)

LYRICAL SUBJECT IN ZEBO MIRZO'S POEMS

Annotation. *The article investigates the lyrical subject's expression in Zebo Mirzo's poetic text through postmodernist analysis. An introduction depicts the essence of lyrical subject matter and its place in the poem followed by an explanation of research requirements. The analysis of literature along with methodology section presents foundational theories of the subject matter. This paper evaluates selected works of Zebo Mirzo during the discussion. The poetess has developed a lyrical character which displays resemblances with mature Uzbek poets Mashrab and Nadira while using their methods of thinking and expression. Research demonstrates that both desire and its relationship with postmodernist thinking exist and differ from one another. Conclusions are presented. The used literature appears in sequence according to its appropriate order.*

Key words: *image, sound, sentiment, postmodernism, desire, archetype, theme, anaphora, syneldoche, lyric subject, inner world, artistic-aesthetic perception.*

Kirish. Lirik subyekt borliqni badiiy idrok qilib, o‘z kechinmalari ifodasi orqali mavjudligini namoyon etadigan alohida shaxs sifadida olinishi mumkin. Kechinma oniy lahzadagi tezkor va dinamik harakati bilan bir qancha mayda qismlarni tashiydi va shu yo‘l bilan lirik she’r subyektning mazmunini ochib beradi. Mazmun barcha zarur qismlarni tashkil etuvchi asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin buni hamma ham tushunmasligi mumkin. Shu ma’noda zamonaviy lirik she’riyatni izohlash, tushuntirish birmuncha murakkabliklar tug‘diradi. Chunki yangi she’riyat barcha asrlardagi ijtimoiy fikrlarni uyg‘otish xususiyatiga ega. Har bir odam san’atning novatorlik masalasi oldida cheklanib qoladi. Novatorlik unga yangi qirralar, yangi poetik mazmun pardasini ochadi. Endi she’rni tushunish, undan yangi muloqot va badiiy tafakkur mahsuli sifatida foydalanish uchun yangi so‘z, aniqrog‘i, mazmunning yangi qirralarini topish talab etiladi. Insonning cheksiz ehtiyojlarini amalga oshirish, uning o‘z idealidagi shaxsga talpinishi, bu talpinishdagi o‘zgachalik, intilish yo‘lidagi kechinma va asosiy maqsad she’rga boshqacha ohang baxsh etadi. Yuzaki qaraganda u faqat muhabbat, oshiqqa yetishmagan ma’shuqaning dardlari haqida deb tushunish she’rlarni yuzaki tushu-

nish bo‘ladi. Ammo ular chuqur tahlil qilinsa, shoira she’rlarida badiiy akslangan voqelik va lirik subyektning borliqni anglashi, muallif badiiy idroki farq qilishini anglash mumkin. Shoira an’anaga qatioy amalga qiladi. O‘zigacha yaratilgan badiiy tafakkur mahsullarining mantiqiy davomi sifatida, o‘zidan oldingi shoirlar tomonidan yaratilgan va adabiyotshunoslar tomonidan e’tirof etilgan kechinma tabiati, histuyg‘u dinamikasi, poetik g‘oya ifodasiga asoslanib, yangi kechinma, poetik g‘oya yaratadi. She’r bir lahzalik kechinmalikdan mutloqlikka, oniylikdan mangulikka ko‘chadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aslida, lirik subyektda mazmun va shakl birligdan tashqari, an’ana va novaqtorlik, obraz va obrazlilik, makon va zamon kabi umumfalsafiy kategoriyalarning ahamiyati ham kattaligini unutmaslik shart bo‘ladi. Bunda bitta salmoqli talab bo‘ladi. “Umuman olganda, san’atning poetik asari tashkiliy jihatgan tugallangan yaxlitlik va yetuklik kasb etishi kerak” [4;363-b.].

Postmodernizm nazariyotchilaridan biri bo‘lgan Martin Xaydeggerning yozichicha, subyekt – olam tuzilishining obyekti” [8;927-b.]. Tafakkurning barcha yo‘llari u yoki bu darajada, sezilarli obrazlarda, til vositasi orqali subyektdan o‘tadi. Subyekt insonning barcha ezgu (afsuski, keng planda ba’zan salbiylariga ham, ammo bu boshqa, sof ijtimoiy muammo – Q.Y.) niyatlariga yo‘l ochadi. “Subyektiv olam insonni turli manba va asoslar bilan ta’minlab turadi. O‘zining mutloq haqiqati oliy haqiqat ekanligiga boshqalarni ham ishontiradi. Obyektiv borliq subyekt borligini tushunadi. Voqelik badiiy asardagi mavjudlik huquqini olish uchun subyekt oldida predmet sifatida ishtirok etadi” [8;927-b.]. Shu ma’noda lirik subyektning istagi birinchi o‘ringa chiqadi. Obyektiv borliqqa o‘z mavjudligini istak, o‘y-fikrlari orqali namoyon etadi.

Shoir lirik subyekti botiniy go‘zallik, ideal va real imkoniyat muvofiqligi, ishq va vasl haqida so‘zlaydi. Bunda har bir so‘z, badiiy detalga alohida diqqat qiladi. Zero, “Olamdagi go‘zallik va so‘zlarning jozibasi o‘rtasidagi mutanosiblikni idrok etish. Tovushlar, she’rdagi qat’iyat va …rutmdan zavqlanish. Qimmatli tuyulgan tajribani o‘zgalar bilan bo‘lishish istagi” kabi ijodkorni yozishga bo‘lgan ishtiyoq birinchi galda shaxs sifatida jamiyatda o‘z o‘rnini toppish, baxtga yetishishga qaratilgan [6;129-b.].

“Umuman olganda, yozuvchi (shoir)ning uslubi uning ichki dunyosining ishonchli ko‘rinishidir, yorqin uslubda yozishni istagan kishining, avvalo, qalbi yorqin bo‘lsin, bodiyu, u ulug‘vor uslubda yozmoqchi bo‘lsa, eng avvalo, qalbi ulug‘vorlik bo‘lsin” [3;97-b.]. Yuqoridagi fikrlarning o‘ziyoq lirik subyekt tabiati va badiiy ifodasidagi turfalik borligini ko‘rsatadi.

Natija va muhokama. Manbalardan aniq bo‘lmoqdaki, lirik subyekt alohida mustaqil shaxs sfatida lirik asarda mavjud bo‘ladi. Ammo u ba’zan shoir va u mansub davr, millat, xalq an’analari hamda eng so‘nggi tafakkur shakllarini ham qamrab oladi. Unda biz bilgan oddiy tushunchalar yangicha mazmun kasb etishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Zebo Mirzo she’rlaridagi muhabbat mavzusi oddiy sevgi emas. U, dastlab, tiriklikka, insonga, tabiatga muhabbatdir. Lirik qahramon subyektidagi olam bilan u ko‘rgan obyektiv olam o‘rtasidagi nomutanosiblik lirik qahramon ruhidagi kechinmalarga turli ta’sir ko ‘rsatadi. Lirik qahramon o‘zi istagan tiriklik, inson, olam va mohiyatni topolmaydi. Shuning uchun qayg‘uradi, kuyinchaklik bilan yozadi:

Topilarmi bu ishqda, yohu
Menday komron, mendayin badmast.
Sizsiz endi umrim qorong‘u,
Siz bilan ham hayotim baxtmas!.. [10;9-b.]

Lirik qahramonning murodi ishq bo‘lganda edi, u sevgani bilan baxtli hayot kechirgan bo‘lardi. Bunday vaziyatda she’r primitiv, oddiylik va o‘rtamiyonalik kasb etgan bo‘lardi. Bu yerda ishqdan murod ibtidodagi, obyektning subyekt ko‘zidan o‘tgandagi kechinma edi. Shuning uchun lirik subyekt oradagi vaqtni umumiy ma’nodagi ming yil birikmasi bilan ifodalaydi. Buni quyidagi bandda kuzatish mumkin:

Ming yillikkim, mening yorug‘ kunim yo‘q,
Ming yilkim, oy – xanjar, yulduzlar – xanjar,
Ming yilkim tilimga bosadilar cho‘g‘,
Kun va tun atalmish ikkita ajdar! [10;43-b.]

Anafora vazifada kelgan “ming yil” umumlashma tushuncha bo‘lib, lirik subyekt botinjiy olamidagi iochki vaqt va iztirob ko‘lamini bildiradi. Ayniqsa, bu yerdagi “ming yil” so‘z birikmasining takrori lirik subyekt kechinmasi va istagi tig‘izligini ham ko‘rsatadi. Shuning uchun shoira o‘z poetik nigohini tashqi olamga emas, o‘z ruhiyatiga qaratadi. Chunki unda subyektiv olam ibtidosining izlari bor va u yanada teranlashib, kechinma dinamikasining tezligini aks ettirmoqda. Natijada lirik subyekt obyektiv olamning azaliy merzonlariga metaforik vazifa yuklab, ularning azaliy poetik vazifasi, aniqrog‘i, oy – fonus, yulduz – parvona yoki oy – yuz, yulduz – mayoq, kun – yorug‘lik, tun – sirrdosh do‘st kabilardan boshqa *oy – xanjar, yulduzlar – xanjar, tun va kun – ajdar* degan vazifalarini ko‘radi.

Shu yerda lirik vaqt, arxitip masalasi ham o‘rtaga chiqadi. Lirik subyekt, aslida, ruhoniyatga aloqador mavjudlik sifatida ajdodlar kechinmasi, fikri bilan va ruhiyati bilan yaxlit butun ekanligini tushunadi. Shuning uchun bu yerdagi ming yil ruh uchun arzumas masofa, vaqtdir, ammo ana shu vaqt ichida oy yulduzlar xanjar bo‘lib ko‘ksinga botishi, tilingda aytolomagan darding kuyigi bilan yashash azob ekanligini his etish kerak bo‘ladi. Bu yerdagi shoira metaforik asosda kun va tunni ajdarga o‘xshatib, ruhi, botinidagi azoblar ichra yashashni mifik obraz orqali yanada teranroq tasvirlagan.

Lirik subyekt muhabbat o‘tida yonar ekan, kechinmalarini badiiy ifodalar ekan, mumtoz she’riyatimizdagi an’naviy ifodalarga novatorona yondashganini kuzatish mumkin. Sharq mumtoz adabiyotida, xususan, diniy manbalarda, narigi dunyoda xotin-qizlar o‘n sakkiiz, erkaklar esa o‘ttiz-qirq atrofida qayta tirilishi haqida naql qilinadi. Demak, xotin-qizlar uchun eng yetuk, balog‘at (ruhiy-intellekt, moddiy-jism jihatidan) yosh o‘n sakkizda bo‘lishi ma’qul ko‘riladi. Shoira quyidagi she’rida ana shunga ishora qiladi:

Axir nima qilay qadamlarim zil,
Qutulmoq istayman bu tilsim toshdan.
Faqat kel, faqat kel, kim bo‘lsang ham kel,
Hali oshganim yo‘q o‘n sakkiz yoshdan! [10;43-b.]

Mazkur she’r “Ro‘yoga iltijo...” sarlavhasi ostida beriladi. Uning boshlanishida lirik subyekt ichki vbaqtni ming yillarga mengzaydi. Bu esa lirik subyekt qalbidagi muhabbat azobi cheksiz ekanligini bildirsa, ikkinchi tomondan, u o‘z muhabbatini insoniyatning azaliy dardi ekanligini anglaydi. Bu yerdagi yana bir muhim jihat shudaki, bu yerda lirik subyektning firoqdagi holati inson tabiatidagi kuchli hayajon yoki hayratdan bir yerda turib qolishga o‘xshatilgan. Buni oyog‘ida tosh borligi bilan ifodalaydi. Bu metaforik asosda qadimda asirga tushgan kishilarni qochib ketmasligi uchun yog‘iga tosh boylab qo‘yish odatiga ishora qiladi. Lekin end bu tosh zulm toshi emas, balki tilsimli toshdir. “Tilsim”lilik epiteti she’rdagi tosh detalini mumtoz she’riyatimizdagi tosh poetik detaliga yuklangan an’aviy ma’noga yaqinlashtiradi. Mumtoz nasrimizda Me’roj voqeasi bayonida, “Buroq nomli hayvonga minib, Baytul Maqdusga bordilar. So‘ngra u yerdagi katta xarsang tosh ustida turganlarida Me’rojga ko‘tarildilar” degan tasvir bor [9]. Bu yerdagi tilsim tosh ustida me’rojga ko‘tarilish voqeasiga ishora bor. Zebo Mirzo lirik subyekti ham ana shunday tilsimli, mo‘jizaviy tosh bilan yashayotgani va u ham vasldan umidi borligiga ishora qiladi.

Mumtoz she’riyatimizda sehrli, tilsimli tosh obrazi ko‘p uchraydi. U yerda qimmatbaho tosh, aslida, tosh ekanligi, unga ortiqcha bino qo‘ymaslik, ishonmaslik haqidagi ibrat ma’nosida qo‘llangan. Navoiyshunos olim Manzar Abdulxayr esa Hazrat Navoiyning quyidagi bayti tahlilida ham tosh va uning poetik ma’nolarini ochib bergan: “Qilib chun xay gulobi mayl na’kayning, bo‘lib ondin. Malak ra’nolarining jabhasi bo‘lib sandalso... Bu o‘rinda na’layn otning tuyoq izlariga ishora tarzida qo‘llanilgan: o‘sha me’roj tuni Buroqing bilan yerdan kokka ko‘tarilayotganingda, otingning tuyog‘iga yerdagi bir *sangpora* (tosh bo‘lagi (ta’kid bizniki –Q.Y.) meh ham boraman, deb ilashgan edi. Oting havoga ko‘tarilgandan so‘ng sen sangporaga qol deb amr etding va u havoda “sangi muallaq” holida qoldi...” [1;92–93-b.]. Bu yerdagi chiroyli tashbeh insonning o‘z-o‘zini anglashga undashida yuzaga chiqadi. Ya’ni, tosh falakda yulduz bo‘lib qoldi va u yulduz sifatida ulug‘landi. Inson ham o‘z-o‘zini anglasa, ana shunday ulug‘lanish ta’kidlangan.

She’rdagi tilsim toshdan murod lirik subyekt xayolidagi konkret odam kelishi yoki unga ko‘tarilib borishdir. Bu, bir tomondan, oddiy havas bo‘lsa, ikkinchi tomondan, mazkur tosh bog‘langan holda turishda real olam, moddiy hayot bilan bog‘langanlik, ilojsizlik ma’nolari ham ko‘rinadi. Lirik subyekt o‘zi kutayotgan va qoshiga chorlayotgan odam idealidagi yetuk shaxs deb ham talqin etish mumkin. Chunki bu yerda barcha narsani subyekt hal qiladi. O‘z fikrini, kechinma va niyatini obyektiv olam belgilari bilan tasvirlayapti. Ular ostida subyektning badiiy idroki namoyon bo‘ladi. Subyektiv olam uchun esa turli madaniy cheklovlar, qobig‘lar ikkilamchidir yoki ularni, umuman, tan olmaydi. Shu ma’noda sevganiga yetolmaganlar u dunyoda o‘n sakkiz yoshda qayta yaratiladi, degan tushungani reallashtirishga intilmoqda.

Yuqoridagi she’rning oxirida kelgan *o‘n sakkiz yosh* so‘z birikmasi yaxlit timsol sifatida ham mumtoz she’riyat faol ishlatilgan. Avvalo, aytish kerakki, o‘n sakkiz so‘zi bosh harf bilan beriladi. Bu aynan shu yoshga ta’kid, diqqat qilish maqsadida yozilgan. Uning ma’nosi yetuklik yosh, zavq-shavqqa to‘la yosh kabi qator ma’nolari bor. Hazrat Navoiyning “O‘n sakkiz min olam oshubi boshindadir...” deb boshlanuvchi mashur g‘azali, Said Ahmad (“O‘n sakkiz yosh”) hikoyasi, Erkin Vohidovning “O‘n sakkizga kirmagan kin bor?” deb boshlanuvchi she’ri, Sh.Xolmirzayevning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor?” qissasi, Qo‘chqor Norqobilovning “O‘n sakkizga kirmagan men bor” kabi asarlarda o‘n sakkiz yosh inson hayotining yetuklik, komillik, muhabbat yoshi, baxt ostonasi kabi ma’nolarda keladi. Shuningdek, olam ham o‘n sakkizta ekanligi haqidi fikr ko‘p uchraydi. Shularni inobatga olsak, lirik subyekt bekor oshganim yo‘q

o‘n sakkiz yoshdan, deganda endigina balog‘atga yetishdim, yetuklik pallasida man, hali baxtga to‘ymadim, muhabbatga, sevgiga tashnaman, degan ma’nolarni nazarda tutgan.

To‘g‘ri, milliy qobig‘dan bunday chiqish ko‘pchilikka tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Ammo istalgan badiiy yoki falsafiy asar o‘quvchining ichki dunyosiga xos: har qanday matn kutilmagan, avval ochilmagan mazmun va assotsiatsiyaga ega bo‘lishi mumkin. Bu esa biz ko‘nikkan, kutgan mazmundan tashqariga chiqishdir. Bunday “tashqariga chiqishga” tayyor bo‘lmagan har qanday o‘quvchi shoirani tushunmasligi, tabiiydir. Bunda lirik subyekt obyektni ham o‘z olamidan o‘tkazadi hamda unga badiiy-estetik baho beradi:

Yo‘q, endi yoddingdan chiqaromaysan,
Umringda quyoshday porlayveraman.
Ming yillar qa’riga ketganignda ham,
Men seni samoday chorlayveraman”. [10;10-b.]

Mazkur she’riy parchada lirik subyekt muhabbatning bir lahzalik qudratini anglagan qalb (odam, shaxs, kishi) ma’shuqa yodini unutolmaydi. Chunki tiriklikning mohiyati mehr-muhabbatga qurilgan. Bunda muhabbat kengayib, mavjudlikning har bir detali tog‘, dengiz, maysa, yaproq, samo kabilarda namayon bo‘lishi va tiriklik mohiyatini anglagan odam uchun esa bu azob ekanligiga ishora qiladi. Chunki voqelik subyektning istagiga bog‘liq. Shoira she’rlaridagi lirik qahramon subyektning markazida turib obyektni boshqarmoqda. Uning o‘y-fikrlari obyekt uchun mavjudlik huquqini beradi. Ana shu o‘rinda bunday prinsipning aksi bo‘lgan konservatizm va uning asosida shakllangan jamiyat uchun shoiraning *“Azizim, ishq mening tushimda olgan bitta bo‘sangdan ko‘rgan farzandim!”* kabi misralari axloqiy normalarga ziddek tuyuladi. Aslida esa bu eng yaxshi badiiy topilma yoki ta’sirchan ifoda sanaladi.

Ma’lumki, gegelcha ta’limotga ko‘ra, obyekt birlamchi subyekt ikkilamchi bo‘lishi kerak. Lekin shoiraning ruhiyatida buning aksi kuzatiladi. U o‘z ruhiy olami bilan yashaydi. Uning uchun subyektivlik yetakchiladi qiladi. Subyekt mohiyatning markazida turuvchi va ana shu mohiyatning mavjudligiga asos bo‘ladi. Subyekt inson ma’naviy olamining asosi, unda badiiy-estetik ideal, badiiy g‘oyalar mukammal uyg‘unlikda yashaydi. Shuning uchun aksariyat she’rlarida lirik qahramon kechinmasi asosiy o‘rinda turadi. Tashqi ta’sri vositalari esa ikkilamchi bo‘lib, badiiy so‘z, qator badiiy tasviriy va ifodalar vositalari she’r orqali muallif anglagan badiiyat olamidagi g‘oyaviy mazmunni izohlash va ochib berish uchun xizmat qiladi. Obyektiv olam subyekt olamidan o‘tadigan fragment sifatida taassurot qoldiradi. Shu ma’noda subyektning istagi birinchi o‘ringa chiqadi va obyektiv borliqqa o‘z mavjudligini istak, o‘y-fikr orqali namoyon qilmoqda.

Shoira yaratgan lirik subyekt o‘zi anglagan va insoniyatga dahli bor deb sanagan kechinmalarni, insoniyatning ibtidodagi dardi, komillik istagini haqida fikr yuritadi (ba’zi o‘rinlar u muallif bo‘lishi ham mumkin). Natijada she’rlarda hayotsevarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik, tabiatga muhabbat kabi g‘oyalar subyektiv kechinmalar bilan qorishiq holda zuhur bo‘ladi. Fikr isbotini “Sog‘inish” she’ridan olingan quyidagi she’riy parchada kuzatish mumkin:

O‘tib borar quyoshli kunlar,
O‘tib borar nurga burkanib.
Nimagadir yashagim kelar
Gul bargiga asta o‘ranib... [10;42-b.]

She’r anafora bilan boshlangan. Unda ruhiy parallilizm sezilib turibdi. *quyoshli kun* so‘z birikmasi bu yerda ikki hil ma’na keladi. Birinchi galda u iliq kun, issiq kun ma’nosini bildirsa, ikkinchi o‘rinda, mertaforik asosda yoshlik chog‘, umrning oydin kunlari ma’nosini ham anglatadi. Lirik subyekt obrazli ifoda va hissiy-emotsionallikni metafora yordamida kuchaytirib, she’rga badiiylik bag‘ishlagan. Hayotsevarlik g‘oaysini go‘zal badiiy topilma *“Gul bargiga asta o‘ranib”* yashashi ta’sirchan ifodalay olgan. Shu yerda gul va lirik subyekt mazmunan yaqinligi, bir-biriga menzab ketishi ko‘zga tashlanadi. U ham gul kabi nozik, gulbargidek yashil va mayin bo‘lib, yashillik va yashisi kelishi umumiy kompozitsiyada yaqqolroq anglanadi. Lirik subyektning ko‘ngli nozikligi, gulag qiyoslanishi she’rning keying bandidada yanada yarqinroq ask ettirilgan:

Ketsam deyman silkitib birdan
Ko‘nglimdagi bor g‘uborlarni.
Uflarning etaklariga
Ergashtirib lolazorlarni... [10;42-b.]

Bu yerda eng muhim narsa *ufq etaklariga lolazorlarni ergashtirib* ketish istagi sanaladi. Chunki lirik subyekt uchun qalbi orom oladigan, ko‘ngli tinchlanadigan joy bu ufqning etaklari hisoblanadi. Ammo yfqning etagi bo‘lmaydi. Chun real hayotda uqf etagidek tuyulgan joyni mo‘ljal qilib borilsa, ufq yana ortga

chekinadi va shu zaylda davom etaveradi. Postmodernistik dunyoda yagona yuksak ideal bo'lmasligi, yetik unison bo'lish imkonsizligi haqida fikrga ishora qilar ekan, lolazorlarga bosh bo'lish, lolazor va undagi lolalar timsolida hayotiy amoli qalbi go'zal kishilar bilan yashash, ularni yuksaklikka qarashni o'rgatish, olg'a intilish ekanligini ta'klidlaydi. Demak, shu yerda lirik subyekt xalqparvar, hayotga nekbinlik bilan qarovchi shaxs ekanligi seziladi. Zebo Mirzo yaratgan lirik subyekt sevgan kishining dardi bilan yashaydi, taqdir hukmiga bo'ysungancha matonat bilan hijronda yashaydi, shuning bilan birga, kelajakka umid bilan qarash mavjud. Bir qarashda, bu tushunchalar bir-birga ziddek tuyuiladi. Ammo shoira ularni yaxlit tarzda aks ettira olgan:

Ko'zlarimdan oqar ko'zlaring g'ami,
Ko'ksimga bir sog'inch tiyg'i qadalgan.
Labimda ming yillik sevgining mayi.
Bilmayman, bu qadah kimga atalgan? [10;19-b.]

Banddagi ko'z sinekdoxa usuli yorqali butun bir shaxs anglatadi. Unga qo'agilgan g'am so'zi esa insonning dardi, armonli muhabbatini bildiradi. "Sog'inch tiyg'i" ham metaforik asosda muhabbatning iztikroblarini bildiradi. Uning lirik subyekt ko'ksiga qadalganligi, o'z maqsadi, ideali yo'lida mardoina kurashib, yiqilgan, ammo hamon kurashga talpinayotgan qahramon jangchining matonatrini eslataqdi. Ammo uning dushmani sevgan odami bo'lib (ideal, xayoldagi obraz bo'lib hal keladi), unga intilish, uning visoliga yetish yo'lida tasavvufona ramzlarga ishora ham qiladi. Inson – ko'za, lab esa ana shu ko'zaning cheti. Unda ming yillik sevgining mayi bor. Bu Momo Havodan beri kelayotgan insoniy muhabbat, sevganiga intilish uchun asos bo'lgan ishq mayi, u ana shu may yordamida ma'shuqa hayot mohiyatini anglay boradi. "*Sog'inch tiyg'i*", "*ming yillik sevgi mayi*", "*qadah*", "*ruhning pichoqlanishi*", "*achchiq azob*" va "*oppoq sog'inch*" kabi badiiy tasvir vositalarining badiiy matn doirtasidagi vazifasi hamda "*kimga atalgan?*" ritorik so'rog'ining takrorlanishi shoiraning poetik g'oyasini chuqurlashtirib, uning g'oyaviy mazmunini, she'r badiiy-estetik ta'sirini kuchaytishga xizmat qilgan. Natijada lirik subyektning tub estetik vazifasini asar yaratilgan davr va zamon chegarasidan kattaroq vaqt chegarasiga olib chiqadi. Bu chegarani shoira yaxshi anglaydi. Shuning uchun, garchi insonning o'rtacha umri yetmish-sakson yildan oshmasa ham, shoira kamida ming yillik vaqtni qamrab oladi. Ana shu murakkablik o'quvchiga tushunarsizlik keltirishi mumkin. Aslida, bu tushunarsizlik emas, balki o'quvchining yangi badiiy tafakkur olamiga undashdir. Chunki postmodernizmning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan shizoanaliz(parchalash va tahlil etish)ga binoan, beixtiyorlik, g'ayrishuuriylikning haqiqiy tabiatini tushunish kerak. Shizoanalizda oilaviy munosabatlar doirasi, qiyin ijtimoiy muhit va jarayon, shuningdek, beixtiyorlik, g'ayrishuuriylik tushunchasini har qanday ramziy shakllardan tozalab, istak, voqealarni yaratuvchi niyatni sof holda tadqiq qilish zarur. Ana shu xususiyatlar lirik subyekt anglagan badiiy vaqt ibtibdodan boshlanib, intihogacha davom etishini ta'kidlaydi. "Xohish-Istakni biror yetushmovchilik orqali tushinturishga urinish zarurati individ va olam munosabti haqidagi bizning tasavvurimizni fetishlashtirishga olib keladi" [5;980-b.]. Shundan kelib chiqilsa, lirik subyektning visol istagi kuchli zarurat natijasida tushni u yashaydigan doimiy makonga aylantirgan. Faqat tush yoki xayoliy olam bilan yashaydi. O'sha hayotini, olamini tasvirlash uchun bir qator ramziy detallardan samarali foydaanadi. Buni "Tush" she'ri tahlilda kuzatish mumkin [10;44-b.]:

Oqqush ko'z yoshiga yuvdim yuzimni,
Qarg'aga tilimni berdim, siyladim.
Ketdim, daryolarga soldim izimni,
Baliqlar tilida biyron so'yladim.

Mazkur she'riy parchadagi oqqush ko'z yoshi, til, iz detallari ramziylik kasb etgan. Ma'lumki, turli madaniyatlar tutashuvi va inqirozi davrida jamiyatdagi yetakchi qadriyatlarni yangicha idrok qilish, tushunush tezroq sodir bo'ladi. Bu yerda ham oqqush va unga tegishli ko'z yosh lirik suv yuzini yuvadigan suvga aylangan. Shoira mubolag'a orqali mumtoz she'riyatdagi go'zallik va sadoqat timsoli oqqush obrazgi murojaat qilar ekan, uning ko'z yushi bilan yuz yuvish, ya'ni, undagi go'zallikki o'ziga singdirgani, u bilan tozalanganini bayon qiladi. Qarg'a ham mumtoz adabiyotimizda majoz sifatida ishlatilinadi. U keraksiz paytda yomon gaplarni gapirib, g'iybat, ig'volar qilib, odamlarning dili vayron qilishiga diqqat qilinadi. Lirik subyekt ana shun hodisaning oldini olish ushn qarg'aga o'zining shirin tilini berib, uning ham ramziymajoziy vazifasini yaxshi tomonga o'zgartirishga uringan. Lirik subyekt shu tariqa olamni yaxshi tomonga o'zgartirishni istar ekan, band oxirida buning iloji yo'qligini alliya orqali chiroyli beradi: "*Baliqlar tilida biyron so'yladim*". Demak, bu bandda baliqdek yashab, dardingni ichingga yutib yashashga mahkumlik qismat, deyish mumkin. Lekin sarlavhaga tush deb qo'yilgani bariga oydinlik kiritadi. Bu tush, xolos. Shuning uchun azob va iztiroblardan yuragi to'lgan lirik subyekt o'z tushida yashaydi va real hayotidan ko'ra, qis-

qagina tushuni afzal biladi. Undagi baxtiyor kunlarini eslaydi. "*Susanbil shahrining sultoni eding/ Parilar zotidan edim, o'ynardim./Bir tun uchib borgan edim qoshingga/Sevaman, deb aytding, kuyding, qo'ymading. /Behisht bog'i edi, uchib yurardik,/Qayg'udan – kadardan dil forug' edi*. Ana shu eslash jarayonida u voqealarni o'tgan zamonda ifodalaydi. Pari, beshisht kabi mifiy, diniy tushunchalar bilan yo'qotilgan olamini eslaydi. Bu tush bo'lsa ham, kishi qalbiga kata bosib, yuk bo'lishi his etadi. Azob chekadi, qiynaladi, o'rtanadi, ammo ana shu baxtni unutmaydi. Lahzalik baxt uchun bir umr mashaqqat chekizga tayyorligini izhor qiladi:

Ming yil ko'zi ochiq uxladim, ammo
Hamon o'sha tushdan uyg'onolmayman!

Lirik kechinmaning armonli, xazin ifodasi va oxirgi misralardagi uyg'onolmaslik azobi lirik subyekt dardini yanada kuchaytiradi. Tasavvur qiling-a! bir lahzalik tushda bosinqirab uyg'onish azobidan kishi qancha qiynaladi. Endi bir umr tushda yashash, alahsirab baxt izlash uchun kishidan qancha kuch, matonat, iroda va chidam talab etadi. Bu, aslida, insoniyatga azaldan berilgan ayriliq, intilish azobi, u shunga mahkum. Chunki ilhiy chin muhabbat, haqiqiy baxtga intilish, yorug'lik istash ayb emas va ana shu istak inson faoliyatining asosiga kiradi. Shu yerda tasavvufonadek tuyulgan ba'zi tushunchalar lirik subyekt qarashida zamonaviy mazmun kasb etganiga guvoh bo'lamiz.

"Istak bazisning qismidir", – deb yozadi, Deleza va Gvattari asarida, sotsialistik realizmda esa "istak" g'oyaviy tasavvurlar komponenti hisoblanadi. Freydizmda esa istak tush va fantaziya holatlarini yaratadi, xolos. Postmodernizmda esa J.Deleza va Gvattarining fikricha, "o'zining va boshqalarning istagini qaytarish nafaqat boshqalar uchun, balki o'ziga ham zulm qilishdir. Ana shu jarayonda lirik qahramon shaxs sifatida o'z istaklarini bayon qiladi va u turli cheklovlarni yorib chiqadi" [8;433-b.]. Aynan shu xususiyati bilan u Mashrabning shariat nuqtayi nazari bilan qaralganda, kufr hisoblangan izhoridagi holatiga yaqin turadi. Lekin u hali Mashrab lirik qahramoni darajasida emas. Shuning uchun o'z mayini qachondir kimdir ichishini kutadi. Mashrabning lirik qahramoni esa bu qadahdan bosh tortgan. Chunki u ilohiy maydan totib ko'rgan:

Na aylay obi kavsarni nigorim bo'lmasa soqiy,
Xarobot ichra bordum, qatra may ondin totib o'ttum [2;117-b.].

Zebo Mirzoning lirik qahramoni shu o'rinda zamonaviy she'riyatdagi postmodernistik dunyoqarash ildizlarini mumtoz adabiyotimizdagi tasavvuf falsafasidan olganligiga ishora bor. Chunki Yevropa postmodernistizmidagi shizoanalizda lirik qahramon beixtiyor ravishda o'z ong osti faoliyatini birinchi o'ringa olib chiqadi. Bunday odam, Delezaning fikricha: "hamma narsani yo'qotib, Xudolikni da'vo qilib chiqdi va boshqalar tomonidan ag'darib tashlandi. ... yo'qlikka mahkum" qilindi [8;434-b.]. Zebo Mirzoning lirik qahramoni esa sharqlik, u sharqliklarga xos konservatizmni saqlab qolgan. Shuning uchun unda hayotsevarlik g'oyasi sezilib turadi.

Shoira o'zining yangi badiiy tafakkuri uchun mumtoz adabiyotimiz yutuqlaridan unumli foydalangan. Ana'aviy ifoda va undan samarali foydalanib, mumtoz ifodaga yangicha mazmun yuklash haqiqiy iste'dodni namyon etadi. Xususan, shoiraning quyidagi she'riy parchasini olaylik:

Axir,
nikohlandim nigohingizga,
Bilmaysiz,
Bu sirni kimdan o'rgandim.
Azizim,
Ishq – mening tushimda olgan
Bitta bo'sangizdan
ko'rgan farzandim!.. [10;27-b.]

She'rni birinchi o'qigan she'riyatni yaxshi tushunmaydigan kishi undagi so'nggi satr odob-axloq doirasidan chetga chiqqan, deb o ylaydi. Ammo she'rdagi badiiy topilma – nigohga nikohlanish, shundan ishq degan farzandga ega bo'lish she'rning asosi tashkil etmoqda. Shoiraning bu satrlarida Mashrabning "*Gulgun labidin ishq mayin elga sunibon, O'z mastlig'idin ko'zi xumorim keladur*" satriga bilan hamohanglik mavjud [2;180-b.]. Lirik qahramon o'z yuragini ezib kelayotgan dardlarini aziz kishiga g'oyibona murojaat orqali, ritorik so'roq yordamida sanab o'tmoqda. Zebo Mirzo ham Nodira kabi yor sifatini, ishq qudratini bayon qilgan. Nodira deydi:

Mayxonada labing mayidin nuktae dedim,
Jom-u sabuv-u shisha-u paymona qilur raqs [7;92-b.]

Mazkur parchada lirik qahramon yorning labidagi may haqida so‘zlaganda, jom, sabuv (may idishi, ko‘zi), shisha, kosa raqs qiladi, deya bayon qilyapti. Hali yorni ko ‘rmay turib, uning labidagi maydan xushini yo‘qotgan lirik qahramon kechinmasiga mayxonadagi jonsiz idishlar o‘yin tushib, o‘z hissiyotini bayon qilar ekan, nimaga Zebo Mirzoning lirik qahramoni yorning nigohiga nikoh bilan bog‘lanib, tushda oshiqdan bo‘sa olib, uni yanada qattiqroq sevib, bu muhabbatini farzand kabi aziz bilmasin. Faqat Zebo Mirzo bu an’anaviy mavzu va g‘oyani yangicha shaklda bergan. Hijron mavzusi Nodirada g‘azal janrida, aruz vaznida, Zebo Mirzoda esa barmoq vaznida berilgan. Shunda ham shoira ko‘plab o‘rinlarda turoqlarni ajratgan holda, ularni alohida misralarga joylaydi. Bunday joylashuv orqali shoira lirik qahramon dardini o‘quvchiga yanada yaxshiroq va teranroq etib borishiga erishgan. Chunki she’rlarda turoqlarni alohida satrda berilishi uni o‘qish jarayonida o‘quvchida tovush va ritmik birliklardagi musiqiylik va mazmunga e’tiborni kuchaytiradi.

Xulosa. Shoira Zebo Mirzo yaratgan lirik subyekt qat’iy xarakter va mavjudlik haqida tushunaga ega, mustaqil shaxs sifatida yuzaga chiqqan. Lekin u sof xayoliy, reallikdan uzulgan emas. Avvalo, shoir lirik subyektini sobiq tuzumdagi insonni milliy va diniy tafakkurdan xoli, ijtimoiy mafkura uchun xizmatchi, hayotni faqat ijtomoiy maqsaddan iborat deb biluvchi shaxs emas, balki tom ma’nodagi kishi sifatida ko‘radi va tasvirlaydi. Shoiraning nazdida, lirik qahramon tabiatning tarkibiy qismi va individ sifatida o‘z ichki kechinmasi, ruhiy dunyosi va faol harakat doirasiga ega. Bu harakat doirasi, birinchi navbatda, umuminsoniy qadriyatlar orasidan o‘tadi. U barcha inson kabi, sevishga, sevgi orqali hayotga muhabbatini izhor qilishga, ruhiy inqiroz va iztiroblar davrida muhabbat timsolida uning zimmasiga yuklatilgan vazifadan adashmaslikka harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Abdulxayr, Manzar. Timsol tadriji (XV–XXI asr adabiy manbalari misolida). Toshkent, “Yashil yaproq” nashr-matbaa uyi, 2021, 244-bet.

(2). Boborahim Mashrab. Mehribonim qaydasan. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1990, 400-bet.

(3). Ekkerman I.P. Gyote bilan gurunglar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016, 632-bet.

(4). Гегел Г.В.Ф. Эстетика. 4-х томах, том № 3, М., “Искусство”, 1968, 683 с.

(5). Гритсанов А.А., Вашкевич А.Б. Постмодернизм. Энциклопедия. Мн., Интерпрессервис, “Книжный дом”, 2001, с. 979–983.

(6). Jorj Oruell. Men nima uchun yozaman. Insoniytaning bugungi ahvoli. Falsafiy-psixologik maqolalar, Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2024, 176-bet.

(7). Nodira. Ey sarvi ravon. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1992, 228-bet.

(8). Коллектив. Постмодернизм. Энциклопедия. “Интер-сервис”, 2001, 1040 с.

(9). Valiev S. Isro va Me’roj voqeasi tarixi. www://fitrat.uz.

(10). Zebo Mirzo. Nur kukunlari. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2004, 128-bet.

Abdullayeva Barno Umidullo qizi (Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti; E-mail: abdullayevabarno789@gmail.com)

GULBADAN BEGIMNING “HUMOYUNNOMA” ASARINING XORIJDA O‘RGANILISHIGA DOIR

Annotatsiya. *O‘rta asr tarixchilari orasida ikki ayol tarixchi manbashunos vizantiyalik malika Komnen bo‘lib, o‘z akasining va otasi Aleksey Komnenning tarixini yaratgan. Bu asar o‘sha asr Vizantiya tarixini o‘zida aks ettirgan o‘lmas asar sifatila tan olingan bo‘lsa, ikkinchisi Movarounnaxr, O‘rta Sharq, Qobul, Hindistonning muayyan bir davridagi murakkab munosabatlarini nihoyatda chuqur fahmlay olgan va bu voqealarni ta’sirchan bayon qila olgan tarixnafis Gulbadan Begimdir.*

Kalit so‘zlar: *Gulbadan Begim, “Humoyunnoma”, Boburnoma, Akbarnoma, temuriylar, Komnen, Hasan Rumlul.*

ОБ ИЗУЧЕНИИ ТРУДОВ “ХУМОЮННОМА” ГУЛБАДАН БЕГИМ ЗА РУБЕЖОМ

Аннотация. *Среди историков Средневековья двумя женщинами-историками были византийская принцесса Комнин, создавшая историю своего брата и отца Алексия Комнина. Хотя этот труд признан бессмертным произведением, отражающим историю Византии того столетия, труды второй, Гульбадан Бегим -учителя истории, глубоко раскрывают сложные отношения Моваруннахра, Ближнего Востока, Кабула, Индии в определенное время и дают впечатляющее описание событий того периода.*